Goho ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos muqobil variantlarning tayanch komponentlarigina bir-birlarinikiga o'xshash bo'lib, boshqa so'zlari farq qiladi. Bunday o'zaro muqobil frazeologik birliklar odatda bir xil voqea-hodisa, harakat-holat, xislat-xususiyatning obrazli yoki his-hayajonli ifodasi uchun yaratilgan bo'lib, bir-birlariga to'la mos keladilar [1; 196]. Jumladan, turkcha it takımı frazeologik birligining ham, o'zbekcha it yotish mirza turish muqobil variantining ham tayanch komponentlari it bo'lib, ikkala lisoniy birlik ham "yashash uchun hech qanday qulayliklar yo'q" ma'nosini obrazli ifodalashga xizmat qilgan: Benim Kazlıçeşme'deki odama getirdim oğlanı. O dört kişi ile yatarmış. Hep it takımı! Rahat etsin oğlan, dedim. Sabaha dek inin inim inledi (Sait Faik. Mürüvvet). Tarjiması: Husayn ijarada haligi to'rt kishi bilan turar, yashashlari "it yotish mirza turish" ekan. Bolani G'ozlichashmadagi uyimga olib keldim. Bir odamday yashasin shu bola, dedim. Tuni bilan og'riqdan qiynalib, ingrab chiqdi, bola bechora (Hamidova tarjiması. Muruvvat).

It zoonimi o'zbek tilida sodiq kishi qiyofasini tasvirlashda qo'l keladi. "It vafo-xotin jafu" maqoli buning yaqqol misolidir. Kishiga o'z umr yo'ldoshidan ko'ra itidan ko'proq vafo keladi.

It-qadr-qiymati yo'q, tarbiyasiz odam. O'zbek tilida ham turk tilida ham ko'p qo'llaniluvchi zoonimlar qatorida "itday", "it kabi" o'xshatishlari laganbardor yoki sodiq xizmatkor kishini ifodalash uchun ishlatiladi,

turk tilida "yüzünü köpek yalamış", "köpek gibi" kabi iboralar va o'xshatishl orqali surbet, yuzsiz, orsiz kishilar obrazi gavidalantiriladi.

It – laganbardorlar qiyos etiluvchi hayvondir. Chunki egasiga xushomad qilib, ko'nglini ovlashga harakat qiladi. Laganbardorlar vaziyatga qarab, foyda olish maqsadida odamlarga xushomad qiladilar. Rus tilida kuchuk so'zi "och" tushunchasini ifodalash uchun qo'llanadi: голодный, как собака.

Inson xarakterini ifodalovchi so'zlar ham har bir til millatining dunyoqarashi, mentalitetidan kelib chiqib qo'llanadi. Qadimdan tili, dini va qalbi bir bo'lgan, tarixiy imtihonlarda birgalikda kurashgan o'zbek va turk xalqlari kuchli tarixiy aloqalar, umumiy ma'naviy qadriyatlar va urf-odatlariga ega.

Ot, tuya, qo'y, mushuk, it, sigir kabi hayvonlarning xonakilashtirilishi turkiy xalqlar leksikasida ijobiy ma'no belgilarini o'zida aks ettiruvchi frazeologik birliklarning ifoda va mazmun jihatidan boyishida yanada muhim bir omil bo'ldi.

"Eshak gibi" ifodasi turk tilida aqlsiz, qo'pol, o'ylamay ish qiladigan kabi ma'nolarda keladi. Tuyg'usiz, hissiz odamga nisbatan esa "eshak derisi gibi" birikmasi qo'llaniladi. O'zbek tilida esa bu birikmalar juda mehnat qilib yuzaga chiqmagan odam yoki o'ta qaysar ma'nolarida keladi. Shu bilan birga, ko'zlari katta-katta insonga nisbatan "eshak gozlu" ifodasi ishlatiladi.

Turk tilida shunday iboralar borki, ular insonga xos xarakterlarni badiiy va ta'sirchan ifodalash imkonini beradi. Masalan "murekkep yalamış" (siyoh yalagan) iborasi ilm-fanga berilgan, umrini ilm olishga sarflaydigan kishilarni bildirsa, "yüzünü köpek yalamış" iborasi esa uyatsiz, orsiz kishi ma'nosini ifodalab keladi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, turk tilida ham o'zbek tilida ham zoonimlar ishtirok etgan iboralar ko'p va ularning aksariyati har ikki tilda ham o'xshash ma'nolarda keladi.

deve yapmak – tuya qilmoq, bironing pulini, molini o'zlashtirmoq;

deveyi havutuyla yutmak – tuyani yutib, dumini ko'rsatmoq, har qanday katta (ko'p) narsani ham o'zlashtirib, undan nishon, iz qoldirmaslik;

sağmal inek – sog'in sigir; ma'lum miqdordagi mablag' bilan muntazam ta'minlab turadigan manba;

arının yuvasına (inine) çomak sokmak – arining iniga cho'p suqmoq; xavfli odamni gij-gijlab o'ziga hujum qilishiga yo'l qo'ymoq;

sıçan deliği bin altın – sichqonning ini ming tanga bo'ldi; qochib qutulgan joy topolmay qolmoq;

öküzün altında buzağı aramak – tirnoq ostidan kir izlamoq; yomon niyat bilan ayb, xato-kamchilik topishga harakat qilmoq;

eşeğe gücü yetmeyip semerini dövmek – yomonning kuchi yapaloqqa yetmoq; kuchli odamlarga biron narsa qila olmay, alaminu kuchsizlardan olmoq;

köpeksiz köyde çomaksız gezmek – o'zi xon, ko'lankasi maydon; kim nimani xohlasa, shuni qilmoq.

Turli hududlarda uchraydigan jonivorlar ham goho bir-birlaridan tafovut qiladilar: ular o'zlariga xos xususiyatlari, xatti-harakatlari bilan turli xalqlar nazarida turlicha tushunchalar timsollari sifatida namoyon bo'lib, xilma-xil muqoyasaviy iboralarning obrazli asoslari tarzida namoyon bo'ladilar. Bu, o'z navbatida, turli xalqlarning ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan o'zaro mos zookomponentli frazeologik birliklari obrazli asoslarining bir-birlaridan farq qilishlariga olib keladi.

Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasini o'rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o'zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan olamning konseptual manzarasi masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi. Olamning lisoniy manzarasini aks ettirishda esa zoonimlar va zoofrazeologik birliklar keng ahamiyat kasb etadi. Zero, inson obrazi, uning hayoti tabiat bilan chambarchas bog'liqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005.
2. Исмоилов Ф. Зоокомпонентли фразеологик birliklarнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. – Тошкент: 2013.
3. Шабанов Ж., Ҳамидов Х. Уй ҳайвонлари номига асосланган мақол ва ибораларнинг таржимада берилиши // Таржима масалалари. № 2. – Тошкент: ТошДШИ, 2014.

# INGLIZ SHE'RIYATI TARJIMASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Mohira OTABOYEVA,

*O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti*

**Annotation:** *The article discusses the specific aspects of English poetry and their reflection in translation.*

**Key words:** *nonsense poem, literary translation, dictionary, translator, originality.*

"Tilning barcha nozik xususiyatlari, fonetikasi, musiqaviy imkoniyatlari, ritmi, tovush va asrlar mobaynida shakllangan lug'at xazinasini, talaffuz qonuniyatlari – bularning hammasi she'rda bor bo'yi bilan namoyon bo'ladi" [1; 32]. Ana shu tilga xos shirani, shoir orqali xalq madaniyatining bir bo'lagini butunligicha o'zga tilga o'girish mumkinmi? Albatta, prozadagi singari poeziyada asliyatga juda yaqin kelish va so'zma-so'z tarjima qilish mumkin bo'lmagan holat. Buni inkor etmagan holda, tarjimaning tub mohiyatini ham unutmash kerak. Badiiy tarjima asliyatdan matnni o'girishdan iborat texnik jarayon emas, bu ijodiy jarayon.

Jahon adabiyotida o'z o'rniga ega ingliz she'riyati ham shu paytga qadar zahmatkash mutarjimlarimiz tomonidan bevosita yoki bilvosita tarjima orqali o'zbek kitobxoniga havola etilayotir. Ularning asosiy qismi alohida she'riy asar, biroq ingliz adabiyotida asarlar ichida keladigan she'rlar ham borki, ularni ona tilimizga o'girish o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Bu o'ziga xoslikni she'rlarning nasr ichida kelishi bilangina izohlash birmuncha yuzaki bo'ladi, ulardagi vazn, qofiya hamda she'rlar yozilgan yo'nalish ham tarjimada muhim ahamiyatga ega. Taniqli angliyalik yozuvchisi Lyuis Kerrollning "Alisa Mo'jizalar mamlakatida" va "Alisa Ko'zguorti o'lkasida" ertaklari ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Zero, "Kerrol prozasi uning she'rlari bilan chambarchas bog'langan" [2; 328].

Kerroll yashagan Angliyada she'riyatning sentimentalizm, klassisizm oqimlari ommalashgan, romantizm esa o'zining yangi qirralarini namoyon qilib tilga tushayotgan davrda adib she'rlarida ularga murojaat qilmaydi. Uning she'riyatidagi ilk o'ziga xoslik ham mana shunda. Kerroll she'rlarini o'qib his-hayajonga berilmaysiz, ta'sirlanmaysiz, hattoki, pand-nasihati ham olmaysiz, ammo kulishingiz, kulganda ham achchiq kulishingiz turgan gap. Adib hayoti va ijodini tadqiq qilgan olim Demurova Kerroll ertaklaridagi she'rlarini tarjima qilishni "o'ziga xos topshiriq" deya baholab, "ular ba'zan ochiqchasiga, ba'zan to'g'ridan-to'g'ri iqtibos shaklida, parodiya yoki pardaga o'rab keltiriladi, allyuziyalar, mug'obirona hazillar, sezilar-sezilmas qaytariq va chaqiruvlar shaklida ham berilishini" qayd etadi. Adibning ikkala ertaklariga kirgan she'rlarining aksariyati parodiya yo'lida yozilgan. Parodiyani tarjima qilish doim mushkul ish bo'lib qaralgan nazariyotchilar tomonidan, negaki har qanday parodiya bir tilda ma'lumu mashhur matnga asoslanadi, tarjima tilida bu matn ko'pchilikka notanish bo'lishi mumkin. Taniqli adabiyotshunos, yozuvchi Uorren Uiver o'zining "Alisa Mo'jizalar mamlakatida" tarjimalari haqidagi kitobida Kerrollning bu ertagida she'rlarning katta qismi parodiya ekaniga e'tibor qaratadi. Bu parodiyalarning asliyatlarini, deya izohlaydi olim, Kerrolldan avval yoki u bilan bir davrda yashab o'tgan mualliflarga tegishli. She'rlar asliyatlarini o'rganilganda ular orasida Sauti yoki Jeyn Teylor kabi mashhurlar ham borki, bular "Alisa"ning tengdoshlariga boshqacha aytganda, ingliz bolalariga va kattalarga ham birday tanish edi. Uiver o'z tadqiqotida parodiyalarni o'girish metodlarni ham keltirib o'tadi. "Ingliz tilida hammaga ma'lum matnni parodiya qiluvchi she'rni boshqa tilga o'girishning uchta yo'li bor" [3,80] deydi u o'z tadqiqotida. Ular ichida birinchisi – tarjima tilida mashhur shunga yaqin yo'sindagi she'rni tanlab, ingliz tilida yozilmagan shu she'rga ingliz muallifiga o'xshatib parodiya qilish. Rus tarjimonlaridan P.Solov'eva, T.Shepkina-Kupernik ayni shu yo'ldan borishgan.

Ikkinchi yo'l esa parodiyalarni to'g'ridan-to'g'ri o'girish. Uiver bu usulni ertakdagi she'r mashhur asliyatga parodiya ekanidan bexabar, bu she'rni shunchaki kulguli va bir oz g'alati deb bilgan va so'zma-so'z o'giradigan tarjimon tanlasa kerak, deb hisoblaydi. Ma'lumki, Kerrollning ikkala ertagi ham ona tilimizga uch tarjimon – M.Otaboeva (2015, 2020 yillar), M.Zohidova (nisbatan qisqartirilgan shakli, 2016 yili), Sh.Dolimov ("Alisa Mo'jizalar yurtida", 2021) tomonidan o'girilgan. Mazkur uchchala tarjima ichida M.Zohidovanning varianti ertakning ancha qisqartirilgan shakli bo'lgani bois unda she'rlar tushirib qoldirilgan. Qolgan ikki tarjimada she'rlar yuqorida Uiver taklif qilgan ikkinchi usul orqali o'girilgan.

Uchinchi yo'lni tanlagan tarjimon shunday deydi: "Bu nonsens she'r. Men nonsensni o'z tilimga o'girolmayman, ammo o'z tilimda boshqa nonsens-she'r yozib, asliyatning o'rniga matnga qo'sha olaman".

S.Ya. Marshak 1967 yiliy oq ertaklardagi she'rlarni ayni yo'sinda o'g'irgan. Ta'kidlash joizki, Marshakning bu she'rlari allaqachon oq rus kitobxonl uchun o'zlashib ketgan.

Kerroll she'rlarida milliy folklorlardan nafaqat obrazlar olishda foydalangan, balki talay she'rlarning ritmi, vazni ham aynan folklor uslubini eslatadi. Masalan, Adi-Badi tilidan aytilgan mazkur she'rdan bir parcha keltirsak:

*I sent a message to the fish:  
I told them, «This is what I wish.»  
The little fishes of the sea,  
They sent an answer back to me.  
The little fishes' answer was  
«We cannot do it, Sir, because – »'  
I sent to them again to say  
«It will be better to obey.»  
The fishes answered with a grin,  
«Why, what a temper you are in!»  
I told them once, I told them twice:  
They would not listen to advice.  
I took a kettle large and new,  
Fit for the deed I had to do.  
My heart went hop, my heart went thump;  
I filled the kettle at the pump.*

Bu parchadan ma'lumki, she'rda ortiqcha mubolag'a, bezaklarsiz voqea bayoni sodda tarzda berilgan va u quyidagicha o'girildi:

*Men xat yozdim baliqqa,  
Bitdim istagim haqda.  
Dengizdagi baliqlar  
Menga javob yozdilar.  
Shunday edi bu javob:  
"Bajarolmaymiz, janob...".  
Xat yozdim yana bir bor,  
Dedim: "Bo'sunmoq darkor".  
Mayna qildi baliqlar:  
"Qahr neni hal qilar?"  
Yozdim tag'in, ikki bor,  
Maslahat qilmadi kor.  
Toqat bo'ldi asti toq,  
Oldim chovgum, qo'lga boq.  
Yurak o'ynardi shu dam,  
Chovgumga to'ldirdim dam. [4; 66]*

Asliyatdagi so'nggi ikki qator qolganlaridan uzun esa-da, o'zbekchalashtirayotib ma'nodan qochmagan holda ritmni bir xil bo'lishini ta'minlangan. Ingliz tilida "thump" "pump" so'zlari bilan qofiya keltirilgan, birinchi so'z yurakning gursullab beqaror urishini anglatsa, ikkinchisi, dam, puflab nafas berib to'ldirishni anglatadi. O'zbek tilidagi "dam" omonim so'zi bilan qofiyalar saqlanib, ritmga ham putur yetmagan.

She'riy tarjimalargagina xos yana bir hodisa borki, uni qo'llash orqali tarjimon ayrim leksik va grammatik o'zgarish, to'g'rirog'i tushirib qoldirishlar qilishi mumkin. Bu metod transformasiya deb nomlanib, Sh.Dolimov tarjimasidagi "Alisa Mo'jizalar yurtida" ertagining 12 bobidagi quyidagi she'r tarjimasida buni ko'rish mumkin:

*Chillaklaru qarg'alardan kelmadi yordam,  
Men bilan bo'lmassan nechundir, hardam.  
Dam u bilansan sen, qiziq, dam bu bilan.  
Tuturig'ing bormi o'zi? Shu haqda o'ylan.  
Ko'z yoshi ko'lga sho'ng'ib chuqurroq  
Ketaman suzib, sendan uzoqroq  
Baqirib-chaqirib aytan gapimni*



*So'ng o'ynab-kulay sensiz tuzukroq.  
Ho'ngrab sen ortimdan tentakday go'yo  
Qolaver qalbing qotib, bo'lib mo'miyo. [5; 91]*

Avvalo, mutarjim ertakni bilvosita rus tilidan (A.Dantonov tarjimasini) o'girganini e'tiborga olish lozim. Solishtirish uchun Dantonov tarjimasini ko'ramiz:

*Не могла мне тrefы, ни пики.  
Завтра ты с тем, а сегодня ты с этим.  
Как мне сказать, не совравшись до крика  
Зная, что слишком уж я неприметен?  
Ну, а потом? Где возможность для бегства?  
На берегу я назначу тебе randevу.  
Озеро слёз – подходящее место.  
Выскажу всё, да и прочь уплыву.  
Лягу на дно, как подводная лодка,  
Там ты уж точно не станешь искать.  
Будешь рыдать и страдать, сумасбродка!  
Только б придумать мне, как там дышать...*

Dolimov tarjimasida ikki misrani "qurbon" bergan. Ingliz she'riyatida transformatsiyani qo'llashning ikki xil usuli mavjud. Birinchisida, "Mexanik tarzda tushirib yuborish", bu holatda asliyatdagi unurni tarjimada berishning iloji bo'lmasa, bunga vazn va o'lchov yo'l qo'ymaydi. Ikkinchi usul, Dolimov qo'llagani "ijodiy tushirib qodirish" deb ataladi. Bunda she'rning umumiy ma'no kontekstiga zarar yetmagani, ritmi buzilmagani esa mutarjimning yutug'i deyish mumkin.

Poeziyadagi alliteratsiya hodisasidan Kerroll asarlaridagi she'rlarda unumli foydalanilgan. Alliteratsiya ohangdorlikni ta'minlab, his-hayajonni kuchaytirishga xizmat qiladi. U o'quvchi diqqatini oshirib, misralarni oson yodda saqlashga yordam ham beradi.

*I took a corkscrew from the shelf:  
I went to wake them up myself.  
And when I found the door was locked,  
I pulled and pushed and kicked and knocked.  
And when I found the door was shut,  
I tried to turn the handle, but – ' [6; 63]*

Adibning "Alisa Ko'zgu orti o'lkasida" ertagidagi Adi-Badi tilidan aytilgan bu she'riy parchadagi to'rtinchi qatorda pulled, pushed, kicked, knocked va tried to turn so'zlari bilan alliteratsiya hosil qiladi. Tarjima jarayonida doim ham alliteratsiyani saqlab o'girib bo'lmaydi, shuning uchun alliteratsiyani sun'iy hosil qilish asliyatga putur yetkazishini unutmazlik lozim:

*Qalamtaroshni olib,  
Uyg'otishga bordim men.  
Eshik berkligin ko'rib,  
Tepdim darg'azab bo'lib.  
Qulflangan ekan u,  
Tutqichidan tortdimu...*

Tarjimada aynan asliyatdagi so'zlardan alliteratsiya hosil qilinmasa-da, boshqa mavjud so'zlar bunga imkon berishi mumkin. Keltirilgan muqobil tarjimada ham shunday yo'l tutilgan, ya'ni "Tutqichidan tortdimu..." bu so'zlar asliyatda alliteratsiya qilinmagan biroq o'zbekchalashtirayotib bunday yondashuv she'rning jozibali chiqishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida, ingliz tilidan Shekspir sonetlarini rus tiliga mohirona o'girgan olim A.M. Kapulenkoning quyidagi poeziya tarjimasining eng muhim vazifasi asliyatdagi ohangni tarjimada qayta yaratish ekanini [7; 22] ta'kidlashni istardik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Саломов Ф, Комилов С. Дўстлик кўприклари. – Т.: Фафур Фулом, 1979.
2. Демурова Н. О переводе сказок Кэрролла. – М.: Наука, 1991.

3. Weaver W. Alice in Many Tongues. – Mansfield Centre: Martino publishing, 2006.
4. Lyuis Kerroll. Alisa Mo'jizalar mamlakatida. M.Otaboyeva tar. – T.: Yangi asr avlodi, 2020.
5. Kerroll L., Alisa mo'jizalar yurtida. (Tarjimon Sh.Dolimov) – Art Nation, 2021.
6. Carroll L., Through the Looking-Glass and what Alice found there. – M.: Айрис пресс, 2016
7. Капуленко А.М. Некоторые проблемы репродукции поэтический интонации при переводе с английского на русский. Вопросы теории и практики перевода, 1999. – Иркутск.; сб. науч. трудов. – Вып. 2.

## MILLIY XOSLANGAN BIRLIKLAR TARJIMASI MUAMMOSI

(turk kinofilmlari misolida)

Nilufar ESHNAZAROVA,

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

**Аннотация.** В данной статье на примере турецких кинофильмов проанализированы сложности перевода национально-обусловленных единиц, демонстрирующих уникальность и своеобразие каждого языка. На основе анализа перевода фильмов "Рассказ Мелек", "Птицы без крыльев", "Муслим баба" указаны достижения и недостатки переводчиков.

**Ключевые слова:** кинофильм, национально-обусловленная единица, лакуна, реалия, творческий перевод.

Tarjima xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir. Tarjima bilan shug'ullanuvchi shaxs, ya'ni tarjimon ikki til, ikki millat o'rtasidagi ko'prikdir, uning tarjima qilish qobiliyati orqali xalqning, millatning eng nozik qirralari aks ettiriladi [1; 9]. Mana shunday zalvorli ko'priq qurish vazifasi bu kinofilmlar tarjimasidir.

Kinomatografiyada voqealar rivoji nafaqat rang-barang tasvir orqali, balki yuksak proza, o'tkir drama, jozibali poeziya, yorqin tasviriy san'at, musiqiy ravonlik bilan ifodalanadi. Tarjimon filmni qanday ko'z bilan ko'rsa, tushunsa, tomoshabin ham shunday ko'z bilan qabul qiladi va xulosa chiqaradi. Personajning ruhiy vaziyatiga nomuqobil keladigan har qanday, hatto eng mayda soxtakorlik, har qanday uslubiy yoki ma'noviy xato badiiy haqiqatni jiddiy buzishi, yuzaga keltirgan butun haqqoniy taassurotni chippakka chiqarishi mumkin [2; 190]. Buning uchun tarjimondan o'sha xalq, millat milliy koloritini chuqur anglagan holda kinofilm milliyligini saqlash bilan birgalikda tomoshabinga tushunarli tarzda yetqazib bera olish vazifasi ham ko'ndalang turgan ma'suliyatdir. Chunki ma'lum millatda ishlatiladigan ba'zi tushuncha va madaniyat ko'rsatkichlari boshqa millatda uchramasligi yoki shakl, mazmun, hajm jihatdan farq qilishi mumkin. Turk tilidan tarjima qilingan kinofilmlar misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, birgina hurmat ko'rsatish yoki yaqinlikni ifodalash ko'rsatkichi hisoblangan "sizlash" va "senlash" nutqiy ifodasi tarjimasida ham turli muammoli vaziyatlar yuzaga keladi. Ma'lumki, o'zbek xalqi madaniyati yoki odob-axloq ko'rsatkichi doirasi nuqtai nazaridan qaralganda, o'zidan kattalarga hurmat ko'rsatishda xoh u yaqin kishi bo'lsin, xoh qaysidir darajada qarindoshlik xususiyatiga ega yoki umuman begona inson bo'lsin baribir sizlanadi. O'zbekona lutf bilan er-u xotinlar munosabatida ham sizlab murojaat qilinadi. Ammo turkiy millatlarning ko'pchiligida bo'lgani kabi turk xalqida ham sizlash rasmiyatchilikni ifodalash, notanish yoki o'ziga yaqin bo'lmagan insonlar bilan muloqot o'rnatishda ishlatiladi. Xo'sh, bu tarjima jarayonida qanday yechim topadi? O'zbekona lutf bilan turk madaniyati yoki o'ziga xoslikni o'zbekchalashtirish kerakmi yoki milliy koloritini, milliy o'ziga xoslikni saqlash muhimmi? Yuqorida aytib o'tilganidek, xalq ma'naviyatining o'sishi, dunyoqarashining takomillashuvida kinofilmlar yetakchi ahamiyat kasb etadi. Uzoq namoyish etilgan kinofilmlar tomoshasi tufayli ma'lum xalq odob-axloqi ta'siriga tushib qolish hech gap emas. Shuning uchun tarjimon baholi qudrat tarjima asliyat tilidagi xalq ma'naviyatining, odob-axloq ko'rsatkichlarining yuksak darajadagi unsurlarini ham tarjima qilinyotgan millat madaniyatiga moslashtirishi lozim. Ya'ni turkchadan tarjima qilinyotgan kinofilmlarda ham o'zbek xalqiga xos ikrom ko'rsatish bilan ya'ni yosh jihatdan katta bo'lganlarga xoh u yaqin kishi

### III. TARJIMA VA TARJIMASHUNGLIKNING DOLZARB MASALALARI SHU'BASI

bo'lsin, xoh begona yoki qarindosh baribir sizlatilib o'g'irish xalqimiz ma'naviy olamiga, madaniyati va odob-axloq ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. "O'quv ishlari" kinofilmida esa o'rta yoshdagi kino bosh qahramonlari aka-uka Kismet va Ismetlar nutqini sensirab berilgani ko'rib chiqildi. Bu esa kino saviyasining tushganligining va o'zbek xalq madaniyati ko'rsatkichi mezonlari talabiga javob bermaganligining guvohi bo'ldik. Ammo ba'zi holatlar ya'ni salbiy qahramonlar ichki olamini hamda xulq atvoridagi qusurni ko'rsatish maqsadida salbiy qahramon nutqidagi sansirashni berish bundan mustasno. Ammo yana ba'zi holatlarda qahramonlar o'rtasida yaqinlik paydo bo'lganligini isbotlash maqsadida alohida ta'kidlashlar uchraydi. Ya'ni bu asliyat tilidagi millatga xos xususiy madaniyatdan kelib chiqadi. Masalan: "Qanotsiz qushlar" seriali 12-bo'limida serial asosiy qahramoni Muzaffer o'zi sevgan ayolga: "Endi turmush qurdik, bundan keyin meni senlab gapir " degan talabni qo'yadi. Bunday holatda tarjimon o'sha millatga xos madaniyatni asliyatdagi kabi berishga majbur. Ya'ni turk millatida o'ziga juda yaqin olinganda samimiy munosabatni ifodalash uchun sensirab muomala qilinishi lozim ekanligi tarjimada o'z aksini topadi.

Har bir xalq turmush tarzi, dunyoqarashi, narsa va predmetlarni atashdagi o'ziga xosligi boshqa xalqlarnikidan farq qiladi. Bunday xususiyatlar shu xalqning badiiy tafakkuri, maishiy turmush tarzi, urf odatlari hatto, rasm rusumlari, kiyinishi, taomlanishi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunday so'zlar tarjimashunoslikda realiyalar termini bilan ataladi. Turkchadan tarjima qilingan kinofilmlarda ham ko'plab realiyalarga duch kelinadi. Masalan, "Melek hikoyasi" serialida (1-qism 00:10:34 daqiqasi) shunday dialog uchraydi:

-Bu ne?

-Bo'gazalti.

Nefise qahramoni turk milliy taomlaridan bo'lgan kabob nomini "Bo'g'azalti" deya keltiradi. Tarjimon ham bu taom turk milliy taomi ekanligini inobatga olgan holda o'zbekchada ham xuddi shunday beradi.

Turkchadan tarjima qilingan kinofilmlarning aksariyatida murojaat so'zlari hisoblangan "Efendim, Hanimefendim, Gelinhanim, Beyefendi" so'zlaridagi tarjimalarda ham har xillik mavjud. Ba'zi tarjimonlar ushbu so'zlar turk milliy murojaat so'zlari turk millati realiyalari sifatida qabul qilaroq aynan qoldirishni ma'qul topadilar. Ya'ni transkripsiya usulida tarjima qiladilar. "Melek hikoyasi" seriali, 00:08:43 daqiqasidan 00:08:47-daqqasigacha Gelin hanima da seslen, masa hazir. Buyursun jumlasini Kelinhonimni ham chaqir, dasturxon tayyor, kelsin shaklida tarjima qiladi. 00:18:47 daqiqasida Kurban da kestiniz mi hanimefendi? jumlasini esa Qurbonlik ham so'yingizmi, honim afandi? tarzida qoldiradi. Vaholanki, serial o'zbek tomoshabinlari uchun o'zbekchalashtirilgan, tarjima qilingan. O'zbek tili murojaat so'zlarida esa kelinlarga nisbatan kelinhonim deya murojaat qilinmaydi. Yoki hech bir ayolga honimafandi deya murojaat so'zi ishlatilmaydi.

Turk tilidan tarjima kinofilmlarda murojaat shakllariga ko'plab duch kelinadi.

Masalan: "O'quv ishlari" kinofilmidagi quyidagicha diologni uchratamiz.

Ali Osman: Hayirdir, boyle tek basina bu yollarda? Hangi belediyede chalisyorsun, bakalim?

Ali Osman 2: Ne belediyesi hapistan firar ettim, kucum, ben.

Ushbu jumla tarjimada shunday berilgan:

Ali Osman: Tinchlikmi? Bir o'zing bu yerlarda nima qilyapsan? Qaysi hokimlikda ishlaysan?

Ali Osman 2: Qanaqa hokimlik? Qamoqdan qochdim, arslonim.

Bu yerda turk millatigagina xos murojaat shakli kucum so'zi arslonim tarzida mohirona o'zbekchalashtirilgan. Ammo bu yerda kucum so'zi kichigim ya'ni kamsitish yoki mensimaslik ma'nosini ifodalaydi. Tarjimon esa unga teskari ma'no ifodalaydigan arslonim so'zini qo'llagan. Bu yerda balki kesatig ma'nosini bermoqchi bo'lgandir, bu yog'i tarjimonga ma'lum.

"Elchining qizi" ("Sefirin kizi") serialidan yana bir misol:

Nare: Melek, Melek, anneciğim. Anneckiğim, benim, bak bana, anneciğim. Ben burdayim, anneciğim. Melek, bana bak.

Tarjimasi:

Nare: Melek, Melek? Melek? Ona qizim, ona qizim, ona qizim. Ona qizim, menga qara. Ona qizim, menga qara, Ona qizim. Ona qizim, shu yerdaman. Ona qizim, Melek, menga qara.

Ushbu serialda qo'llangan barcha anneciğim so'zi ona qizim tarzida o'g'irilgan. So'z tanlovi esa kinoserial ruhiyatini yoritishda juda o'rinli tanlov bo'lgan. Chunki ushbu serial tamoman mehr-muhabbatni kuylovchi, ayniqsa, ona mehrini namoyish etuvchi serial desak, hech mubolag'a bo'lmaydi.

Milliy xos soʻzlar tarjimondan alohida yondoshuvni talab etadi. Shunga koʻra, filmda aks ettirilgan mazmundan kelib chiqib, baʼzi oʻrinlarda sof turkcha realiya oʻrniga oʻzbekcha muqobil ishlatganining ham guvohi boʻlishimiz mumkin. Masalan: Yana shu serialda (1-boʻlim 00:18:18 daqiqasi 00:18:22) Melek: ...harçlık veriyor baba bize, şekerler veriyorlar jumlasini tarjimon Dadamiz bizga hayitlik beradi. Shirinliklar berishadi tarzida tarjima qiladi. Bu yerda harçlık – “harajat uchun pul” degan maʼnoni ifodalaydi. Ammo kinoda gap Hayit bayrami haqida ketayotgani uchun oʻzbekchalashtirgan holda “hayitlik”, yaʼni biror sovgʻa salom maʼnosida qoʻllangan. Turk millatigagina xos soʻz – realiya muqobilini berishda ushbu serial tarjimoni mohirona foydalangan. Yana ushbu serial 01:17:39 daqiqasi kinofilm qahramoni Ya salata ne? Burada küşleme var, Kadriye'm, küşleme. Küşlemeden vereyim sana, al jumlasini Salat nima boʻpti bu yerda kabob turibdi! Ol, azizam, mazza qilib kabobdan ye tarzida oʻzbekchalashtirgan. Tarjimon küşleme soʻzini realiya sifatida qoldirganda oʻzbek tomoshabini uchun tushunarsiz jumla qurilgan boʻlardi. Chunki kinofilm dasturxonda kabob turgani ekranda aniqlik koʻrsatib oʻtilgan.

Realialar maʼlum millatgagina xos soʻz va tushunchalar ekan, oʻsha millatgagina xos kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlar, turli maishiy jihozlar, geografik joy nomlari ifodasi ham deyishimiz mumkin. Kinofilmlar dialoglarida koʻplab shunday realialar, yaʼni nomlarga duch kelinadi. “Yiglama, ona ” serialida ham bosh qahramon Damla nutqida shunday jumlaning uchramiz: - Yenge börekler soğumasın istersen jumlasini tarjimon ekranda koʻrinib turgan shirinliklardan kelib chiqib shekilli Yanga, xohlasangiz shirinliklardan oling deya tarjima qilgan. Vaholanki, turk tilidan oʻzbekchaga börek soʻzi boʻgʻirsoq deb oʻgirilsa, maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Realialar turiga joy nomlari ham kiritilar ekan, baʼzi hollarda joy nomlari nimanidir ifodalagan ism boʻlganligi oqibatida tarjimonlarda koʻp holatlarda qiyinchilik uygʻotadai. Kinofilmlardan misol keltiramiz. “Oʻquv ishlari” kinofilmida personaj Kismetning Beraber dedimda, aklimga geldi. Ben biraz açkıttım, yemeğe gidecektım. Birlikta çıkalımmı? Kumkapi. Hem orda sütlaç ismarlarım size gapi tarjimon tomonidan Birga dedim, xayolimga keldi. Meni biraz qornim ochdi.Ovqatlanishga bormoqchi edim.Birga boramizmi? Kumkapi. Juda yaxshi qatiq buyuraman sizga tarzida gʻaliz ham sintaktik qurilishi notoʻgʻri jumlada oʻgirilgan. Ushbu tarjimadagi Kumkapi realiya sifatida qabul qilingan.Tarjimon buni turk xalqiga xos milliy soʻz sifatida eng yomoni qatiq turi deb beradi. Aslida bu Turkiyadagi armancha restoran nomidir, sütlaç esa tarjimon oʻylaganidek qatiq emas, shirguruch ovqatining turk tilidagi nomlanishidir.

Tarjimashunos olimimiz G.Salomov “Boshqa xalqlar hayotidan voqif boʻlmaslik, gʻoʻfillik milliy mahdudlikka olib keladi” [2: 18] degan edi. Darhaqiqat har bir kinofilmida milliylikka xos belgilar namoyish etiladi, tarjima boʻlmasa millatlar oʻz qobigʻiga oʻralib, dunyo xalqlarining hayoti, turmush tarzi, milliy oʻziga xosliklaridan bexabar qoladi. Bu borada ishonchli tasavvur hosil qilish uchun tarjimalar yuksak saviyada amalga oshirilgan boʻlishi lozim. Shuning uchun tarjimonning kinofilm aslyatidagi milliylikni boshqa tilda yaratishdagi mahorati dolzarb masalalardan hisoblanadi.Qardosh xalqlar oʻrtasida milliy urf-odatlar, anʼanalar uygʻunligini ham kuzatish mumkin. Buni kinofilmlardagi tasvirlar ham doimo isbotlab beradi. Masalan: “Qora niyat” seriali 126-boʻlim, 42-daqiqasida shunday dialogni koʻramiz:

Tamam hala: Yıldız kızım, ben şimdi bizim gelina bir boğça yaparım, ama neden hoşlanıyor bilmiyorum. Sen bana bir akl ver, ne dersin?

Jumla shunday oʻzbekchalashtirilgan:

Toʻxtagul amma: Yıldız kızım, shu kunlarda kelinimizga sarpo tayyorlamoqchi edim. Ammo nimani yoqtiradi, bilolmayapman. Menga oʻzing yordam bersang, nima deysan?

Bu yerda boʻxcha oʻzbek tili izohli lugʻatida kiyim kechak, latta-putta va shu kabi oʻrab tugilgan qiyiqcha, roʻmol; tuguncha. Bir boʻxcha sarpo deb izohlangan [3; 421].Tarjimada esa boʻxcha soʻzi oʻrniga sarpo soʻzi qoʻllanilgan. Bu soʻz ham maʼlum bir shaxsga yoki koʻpchilikka atab koʻpincha toʻy marosimlarida yoki turli tantanalarda sovgʻa uchun tayyorlanadigan yangi bosh-oyoq libos maʼnosida izohlanadi. Bir qarashda ikki soʻz ham bir maʼnoni ifodalayotgandek, yaʼni sinonimlardek tuyulsa-da, aynan boʻxcha kelinlar liboslari taxlanadigan tugun maʼnosini beradi. Yana bir jihati bu soʻz oʻzbek xalqi lugatida bir muncha eskirgan soʻz. Ammo Surxondaryo-Qashqadaryo vohalarida kelinlar sarposini xuddi shu boʻxchada olib borish anʼanasi saqlanib qolgan. Turk xalqi anʼanalarida ham xuddi shu urf saqlanib qolganligining, qolaversa, aynan shu soʻz bilan ifodalanishi ikki xalq madaniyati va maʼnaviyatidagi uygʻunlikni namoyon etib bermoqda.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, kinofilmlar biror millat madaniyati koʻzgusi sanaladi. Undagi personajlar nutqi orqali oʻsha xalq milliy madaniyati yaqqol namoyon boʻladi. Zero til millat maʼnaviyatini aks ettiruvchi oyna

ekanligi ko'p bor ta'kidlandi. Xuddi shu madaniyatni mohir kino tarjimon o'z tili madaniyati ko'rsatkichlariga moslashtiradi. Bunda aynan bir turdagi so'z yoki so'z birikmalarini o'rniga ko'ra turlicha ifoda bilan tarjima qilishi mumkin. Masalan, turk tilidagi Hakkini helal et so'z birikmasini tarjimon quyidagicha ifodalar bilan tarjima qilgan: ("Muslim baba") 44-daqiqasida bosh qahramon Muslimning ustoziga qarata Ustad, hakkini helal et jumlasini Mendan rozi bo'ling, ustoz deya mohirona o'girilgan. "O'quv ishlari" kinofilmi 09-daqiqasida mayit janozasida domla el-olomonga qarata Hakkini helal etiyor musunuz? – deya so'raydi. Shunda kinoqahramon Kismet Helal et miyorum- deya javob beradi. Tarjimada esa domlaning savoli Mayitdan rozimisizlar? va Kismetning javobi Rozi emasman tarzida o'rinli o'girilgan. Xuddi shu jumla "Muslim baba" kinofilmi 57-daqiqasida esa qahramon Ahmetning akasiga qarata aytgan: Hakkini helal et, abi degan gapi Mayli, omon bo'ling tarzida tarjima qilingan. Sahnada harbiy xizmatga ketayotgan aka-uka xayrlashuvi bo'lgani uchun "Mendan rozi bo'ling" tarzida emas. Omon bo'ling tarzida o'zbekchalashtirilgan. O'zbek xalqida harbiy xizmatga ketayotganda Oy borib omon qayt tarzida xayrlashish milliy an'ana (leksik birlik) tarzida qabul qilingan desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. "O'quv ishlari" kinofilmida esa Bunlar ge'chen seneki o'g'rencilerimiz: hehelleşmeye mi gelmişler? – degan gapi Bular o'tgan yilgi o'quvchilarimiz-ku, xayrlashishga kelishibdimi tarzida munosib o'girilgan. Chunki o'quv markazidagi o'qituvchidan o'quvchilar rozi-rizochilik so'rash uchun kelmaydi. Tarjimon qo'llaganidek xayrlashish uchun kelishgan bo'lishi mumkin.

Tarjimon tajribali va ijodkor bo'lsa, kinossenarist bermoqchi bo'lgan mazmun va mantiqni chuqur anglagan holda bir so'z o'rniga tamoman boshqa ma'noli so'zdan foydalanishi yoki bir so'z o'rniga ikki so'zni ishlatishi, bir so'z o'rniga frazeologik birliklardan unumli foydalanishi mumkin. Bunga misol ushbu filmning xuddi shu daqiqalari tarjimasi davomida tarjimon kinofilm asliyatida umuman frazeologik birlik ishlatilmagan vaziyatda ma'noni kuchaytirish, kinofilm badiiyatini oshirish maqsadida bo'lsa kerak ko'plab maqollar qo'shadi. Masalan, qo'shiqchi Muslim xayolga cho'mib yoshligini eslaydi. Yosh yigitlik chog'larida Muhtaram Nurni xayolan sevganini shunda qishloqdosh qizlar uning ustidan kulganini xotirlaydi. Kadrda qizlar ko'rinmagani holda faqat ularning gaplari uzoqdan kelayotgan tovushlar sifatida berilgan. Shuning uchun tarjimon ifodani: qizlar kesatig'ini, kinoyasini, pichingini yigit orzularining ustidan qattiq kulishganini yaqqolroq ifodalashda Tuya hammomni orzu qilibdi degan maqolni ham o'rnida mohirlik bilan qo'shgan. Tarjimonning so'z tanlashdagi qobiliyati tomoshabinning kinodan oladigan estetik zavqiga ham ta'sir o'tqizmay qolmaydi. Fikrimizning isboti sifatida "Muslim baba" kinofilmining 49-daqiqasidagi bosh qahramon yoyilgan choyshablarni hidlab akasiga qarab, onasini xotirlaydi-da, kir yuvuvchi onasi umri davomida choyshab yuvganini eslagan holda Abi, bak, annem gibi kokuyor degan jumla ishlatadi. Tarjimon esa ushbu jumlaning Aka, qarang, onamning isi kelyapti tarzida o'zbekchalashtirganining guvohi bo'lamiz. Vaholanki, so'zma so'z tarjimada Hidi onamning hidiga o'xshaydi tarzidagi beo'xshov tarjima chiqqan bo'lar edi. Tajribali tarjimon kinofilmida boshqa tilda boshqa millat vakili gapirayotganini sezdirmaydi. Mohirlik bilan so'z tanlaydiki, kino qahramoni nutqini xuddi o'zbek tilida gapirayotgandek ifodalaydi. Masalan, "Muslim baba" kinofilmi 58-daqiqasidagi quyidagi dialog tarjimasiga nazar tashlaylik. Asliyatda:

Doktor: Abi, damari hareket ediyor.

2-Doktor: Yaşyormu, lan, yoksa.

Tarjimada:

Doktor: Yopiray, qo'lini qimirlatdi.

2-Doktor: Nima balo tirikmikan-a?

Bu yerda doktorning taajjubini o'zbek xalqiga xos Yopiray taajjub ifodalovchi so'z bilan juda chiroyli ifodalagan deyishimiz mumkin.

Ko'plab kinofilmlarda bo'lganidek ushbu "Muslim baba" kinofilmida ham "Allah, Allah" takror so'zi bir necha bor turli vaziyatlarga nisbatan qo'llanilgan. Bu so'z yaratuvchining nomi bo'lsa-da, turk tilida taajjubni, hayratlanishni ifodalash vositasi bo'lib qolgan. Bu so'zni xuddi aslidagi kabi qoldirish o'zbek xalqi leksikasiga yot bo'lgan ifodadir. Chunki o'zbek taajjublanganda, hayratlanganda, hayron qolganda Alloh, Alloh demaydi. Yo tavba, Yo Alhazar kabi so'zlar vositasida ifodalaydi. Masalan, xuddi shunday vaziyatga misol tariqasida shu kinofilm 01:33:56-daqiqasidagi quyidagi dialog tarjimasini misol qilib keltirishimiz mumkin. Asliyatda:

Muhtaram Nur: Biz Belgraddan gelmişiz, biliyormusun, teyzemle. Olgaymiş ya benim adım. Olga...

Muslim: Allah. Allah...A Muhterem...

Ushbu dialogdagi bu so'z taajjubni ifodalab kelgan. Buni anglab yetgan tarjimon Yo tavba. Muhtaram-chi? tarzida o'zbekchalashtirgan.



Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, tarjima jarayonida so'z tanlash muammosi har jihatdan chuqur o'rganilishi lozim. So'z ma'nosi kontekst ichida ochiladi. Ya'ni kinotarjimon kinoda ko'rinib turgan ssenariyni chunchaki so'z ma so'z tarjima qilib beribgina qolmay, aktyorlar artikulyatsiyasiga moslashtirish bilan birgalikda kinossenarist bermoqchi bo'lgan badiiy ohang, so'z va harakatlar ortida yashiringan semantik hodisani ham ilg'ay olishi muhim sanaladi.

#### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент, 2016.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020.

## MUQOBILSIZ LEKSIKA VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Dilrabo TO'RAQULOVA,

Samarqand davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены определения понятия и виды безэквивалентной лексики, сложности в переводе географических названий, лакун, реалий, фразеологических единиц и других национально обусловленных единиц.

**Ключевые слова:** безэквивалентная лексика, культура, язык, лексическая единица, эквивалент, оригинал.

Muqobilsiz leksikani o'rganishga bo'lgan qiziqish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kuchaydi. "Muqobilsiz leksika" termini ilmiy muomalaga tadqiqotchilar Y.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarovlar tomonidan kiritilgan. Ular mazkur terminni quyidagicha izohlashgan: "Muqobilsiz leksika boshqa madaniyat va tilda mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar, ya'ni faqat muayyan madaniyatgagina xos bo'lgan madaniyat unsurlari, shuningdek, boshqa tilda tarjimasi bo'lmagan, bir so'z bilan aytganda, o'zi taalluqli bo'lgan tildan tashqarida muqobili bo'lmagan so'zlardir" [6; 232].

L. S. Barxudarovning yozishicha: "Muqobilsiz leksika – bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to'liq yoki qisman muqobiliga ega bo'lmasligidir" [2; 93].

U muqobilsiz leksikaga quyidagi uchta guruhdagi leksik birliklarni kiritadi:

"1. Atoqli otlar – geografik joy nomlari, tashkilot, korxonalar, gazeta va h.k. nomlar.

2. Realiiya – boshqa tilda so'zlashuvchilarning amaliy tajribalarida mavjud bo'lmagan predmetlar, tushunchalar va vaziyatlarni ifodalovchi so'zlar. Masalan: moddiy va ma'naviy madaniyatdagi milliy taom nomlari, milliy libos nomlari va h.k.

3. Tasodifiy lakunalar – biron bir tildagi leksik birliklarning qandaydir sabablarga ko'ra boshqa tilning leksik tarkibiga mos kelmasligi" [2; 94].

Demak, muqobilsiz leksika deganda, biz boshqa tilning leksik birliklari orasida na to'liq, na qisman ekvivalentiga ega bo'lmagan leksik birliklari (so'zlar va so'z birikmalari)ni tushunamiz. Bunga asosan quyidagi so'z turkumlari kiradi:

"1) tegishli nomlar, geografik nomlar, muassasalarning nomlari; leksikada doimiy mos kelmaydigan tashkilotlar, gazetalar, kemalar va boshqalar;

2) realiiyalar, ya'ni obyektlar, tushunchalar va boshqa tilda gapiradigan odamlarning amaliy tajribasida mavjud bo'lmagan holatlar. Bunga turli xil moddiy va ma'naviy narsalarni bildiruvchi so'zlar kiradi. Faqat shu xalqqa xos madaniyatlar, masalan, milliy taomlarning nomlari oshxonasi (rus. щи, борщ, рассольник, квас, калач; ingliz (muffin, haggis, toffee, butter-scotch, sundae), xalq kiyimi va poyabzali turlari (saraфан, душегрейка, кокошник, лапти), xalq raqslari ruscha (трепак, гопак); inglizcha (pop-gocs-the-weasel), xalq og'zaki ijodidan (ruscha былина; inglizcha limericks) va boshqalar.

3) leksik birliklar, ularni tasodifiy bo'shliqlar deb atash mumkin. Biz tillardan birining lug'atining boshqa tilning leksik tarkibida (so'zlar yoki iboralar ko'rinishida) biron bir sababga ko'ra (har doim ham aniq emas) mos kelmaydigan birliklarini nazarda tutamiz" [2; 93].

Butun dunyo xalqlari tillari orasida o'zaro farqlar mavjud bo'lib, asosan madaniyatlar orasidagi farqlarga asoslanadi. Bu farqlar tilning leksik va frazeologik qatlamida yuzaga chiqadi, binobarin, tilning nominativ birliklari aksariyat holda nolisoniy omillar bilan bog'langan bo'ladi. "Muqobilsiz leksika muayyan xalqning milliy madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko'pincha mahalliy xalqqa xos pul birligi, ro'zg'or-ashyo buyumlari, kiyim-kechak, yegulik-ichimlik va h.k tushunchalarni anglatadigan so'zlardan tarkib topadi [18; 82].

Tarjimashunoslikda muqobillik va adekvatlik tushunchalari sinonimlar, o'xshash tushunchalar sifatida qaraladi. Masalan, J. Catford, muqobillikni (tarjima muqobilligini) adekvatlik deb belgilaydi. Biroq, boshqa olimlar, masalan: V.N. Komissarov, muqobillik va adekvatlikni, tarjima bir-biriga yaqin bo'lsa-da, bir-biriga o'xshash bo'lmagan jihatlarni aniqlaydi. Adekvat tarjima zarur bo'lgan "yaxshi" tarjimaning sinonimi sifatida u tomonidan kengroq ko'rib chiqiladi. Va muayyan sharoitlarda tillararo muloqotning to'liqligi va ekvivalentlik til va nutq birliklari bir-biriga tenglashtirilganning semantik guruhi sifatida ko'rib chiqiladi. Shveysar adekvatligini ta'kidlab, ekvivalentlikning turli darajalarini aniqlaydi tarjima ma'lum darajadagi ekvivalentlikni nazarda tutadi, ekvivalent tarjimani esa har doim ham adekvat deb hisoblash mumkin emas [1; 6].

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy makonning eng muhim xususiyati globallashuvdir. Va bugungi kunda, globallashuv sharoitida, tarjima nuqtai nazaridan madaniyatlararo kommunikatsiya muammolari mavzusi dolzarb bo'lib bormoqda. Muvaffaqiyatli muloqot har ikki tomonning bir-birini tushunishini talab qiladi. Muqobilsiz leksikani uzatish muammosi, madaniyatlararo muloqotni ta'minlash masalalariga ham tegishli. Bunday lingvistik hodisa ko'pincha badiiy adabiyotda uchraydi, bu esa, boshqa tillarga tarjima qilishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Muqobilsiz leksikaning bir nechta tasniflari mavjud, ammo bizning fikrimizcha, A.O.Ivanov eng to'liq shaklini ko'rib chiqqan, va u muqobilsiz leksikani uchta katta guruhga ajratadi:

1. Referensial muqobilsiz leksika;
2. Pragmatik muqobilsiz leksika;
3. Alternativ muqobilsiz leksika.

"Referensial muqobilsiz leksika – bu guruh ichida tarjimaning kalkalash, tavsifiy tarjima, qo'shish, tushirib yuborish, konkretlashtirish, neytrallashtirish, umumlashtirish (generalizatsiya), taqribiy tarjima, modulyatsiya kabi turlari aniqlangan.

Pragmatik muqobilsiz leksika – muqobilsiz leksikaning ushbu shaklida biz quyidagi tarjima usullarini topdik: izlash, ta'kidlash, modulyatsiya, qo'shish, konkretlashtirish, original uzatish, transkripsiya va transliteratsiya, umumlashtirish, tavsifiy tarjima, neytrallashtirish, tashlab ketish, taxminiy tarjima.

Alternativ muqobilsiz leksika – bu guruh ichida tarjimaning qoldirib ketish, kalkalash, konkretlashtirish, qo'shish, modulyatsiya, neytrallashtirish, urg'ulash, umumlashtirish, tavsifiy tarjima, taxminiy tarjima, transkripsiya va transliteratsiya kabi turlari aniqlangan" [10; 168].

"Muqobilsiz leksika" atamasi til va tarjima muammolari bilan shug'ullanadigan ko'plab mualliflarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan, masalan, E.M. Vereshchagin, V.G. Kostomarov, L.S. Barxudarov, S.I. Vlixov, S.P. Florin, Y.I. Retsker, V.N. Komissarov, A.D. Shveyser, A.V. Fedorov. Biroq atamaning o'zi, "realiya" tushunchasining sinonimi sifatida, "mahalliy realiyalarga xos bo'lgan so'zlar" yoki "boshqa tilga tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar" sifatida turlicha talqin qilinadi [4; 23].

Masalan, Shveyser "boshqa madaniyatda aniq mos kelmaydigan madaniy voqelikni belgilashga xizmat qiladigan leksik birliklar" [18; 110] deb muqobilsiz leksikaga ishora qiladi. V.N. Komissarov muqobilsiz leksikaga "tilda muntazam yozishmalarga ega bo'lmagan til birliklari" [7; 89] deb ta'rif beradi.

Tilshunoslar Vlixov va Florin, o'z navbatida, muqobilsiz leksika, chegaralarini sezilarli darajada toraytiradi va ular "o'z tilida tarjima ekvivalenti bo'lmagan leksik birliklar" [5; 42] deb ta'rif berishadi.

Tarjimada milliy o'ziga xoslikni aks ettirish, realiyalarni berish hamisha tarjimon oldida murakkablik tug'dirgan. Bu borada katta tajriba to'plangan, ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa ham, bu muammo hanzu o'z yechimini topgani yo'q. Shuning uchunmi, bu borada xato-kamchiliklar kamaymayapti.

Muqobilsiz leksika tarjima tilida ekvivalenti bo'lmagan, boshqa madaniyatga aniq mos kelmaydigan, boshqa xalq milliy unsurlari bilan tenglashtirilmagan so'zlar deb ta'rif berilar ekan, aynan bir tilgagina xos bo'lgan milliylik, milliy xos so'zlar tarjimasini muammosiga alohida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi.

Milliylik, madaniyat va milliy o'ziga xoslik aynan bir mamlakat, xalq va millatning milliyligini tashkil etadi. "Milliy xos so'zlar" mavzusi o'zbek tarjimashunosligida atroflicha o'rganilgan. G.Salomov, N.Komilov, Z.Isomiddinov, R.Fayzullayev, Q.Musayev, X.Hamidov, E.Ochilov, N.Xodjayeva, N.Ismatullayeva, B.Bo'ronova, M.Umarova, G.Nomozovalar milliy kolorit, milliy xos so'zlar va ularni tarjimada berish usullari, tarjima qilish jarayonida tarjimon duch keladigan muammolar, qiyinchiliklar haqida tadqiqot olib borganlar.

Milliylik, milliy o'ziga xoslik deganda faqatgina bir xalqning o'zigagina tegishli bo'lgan jihatlar tushuniladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida milliy so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: "1. Millatga oid; bir millatdagi kishilarga xos bo'lgan; 2. Biror millatning, xalqning o'ziga xos bo'lgan, uning xususiyatlarini ifodalovchi; 3. Biror mamlakatga, davlat va uning aholisiga oid". Shunday ekan, bir millatgagina tegishli bo'lgan har qanday unsur, urf-odat, an'ana; kundalik hayotda qo'llaniladigan buyumlar milliyini tashkil etadi.

G. Salomov asarlarda, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda milliy o'ziga xoslik katta o'rin egallashini, u har qanday ijod mahsulining asosiy ko'rsatkichlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi va shunday ta'rif beradi: "Milliy o'ziga xoslik – adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma'naviy turmush tarzi, tabiati, o'rmon, tog', dala, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho'pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san'ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamaları, tushuniladi. Kiyim-kechaklar, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hokozolar ham milliy xoslik komponentlari jumlasiga kiradi" [13; 101].

So'nggi paytlarda "Til va madaniyat" muammosiga e'tibor kuchayishi munosabati bilan lingvistik tadqiqotlar paradigmasi turli darajadagi til birliklari ma'nolarining milliy madaniy komponentini aniqlashni o'z ichiga oladi. Ushbu komponent eng ko'p leksik va frazeologik darajalarda ifodalanadi. Lug'at, realiya olami bilan eng yaqin aloqada bo'lgan til darajasi sifatida, an'anaviy xususiyatlardan tashqari, so'zlarning ma'nosi, (antonimlar, sinonimlar), aloqadorlik darajasi va ko'lami bo'yicha bog'lanishi. Qo'llanishi bo'yicha (adabiy lug'at, shevalar, maxsus lug'at) milliy-madaniy o'ziga xoslik nuqtai nazaridan tavsiflanishi kerak.

Lug'aviy tushunchalari tillararo bo'lgan so'zlar ekvivalent deyiladi, ular oson tarjima qilinadi, ularni o'zlashtirganda esa semantik ko'chish ancha maqbul bo'ladi. Aksincha, ma'no-mazmunini hech bir chet tilidagi leksik tushunchalar bilan solishtirib bo'lmaydigan so'zlar muqobili yo'q (muqobilsiz leksika) deyiladi. Bunday so'zlarni, qat'iy aytganda, tarjima qilib bo'lmaydi [4; 77].

Agar muqobilsiz leksika o'zlashtirilmasa unda hech qanday holatda uni chet tilida aniq yozishmalar, bir so'zli tarjima yordamida ifodalash mumkin emas. Bunday holda, leksik tushunchani so'zma-so'z tasvirlash kerak bo'ladi. Bu borada Vereshagin E, Kostamarov V. kabi olimlar "Язык и культура" nomli kitobida quyidagicha fikrlarni keltiradi "Turli tillardagi tushunchalar tizimi bir-biriga to'g'ri kelmagani uchun... chet tilini o'rganishda nafaqat so'zlarning tovush shaklini, balki ular asosidagi tushunchalarning tizimini ham o'zlashtirish kerak" [13; 77].

Bu kabi leksik birliklar xalqimizning asriy qarashlari, ma'naviy hayotining asosi sifatida yuzaga kelgan, tasavvurimizda muhrlangan qadriyatlar, an'analari ifodasidir. Shunday ekan, bunday birliklar faqat bizning millatimizgagina xos hodisalar bo'lib qolmay, boshqa xalq vakillarida ham bunday jarayonlar kuzatiladi. Muqobilsiz leksikani tarjima qilishda nafaqat asliyat tilini bilishi, balki xalqlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, urf-odati, maishiy hayoti, nutqiy etiket qoidalarini bilishi talab qilinadi. Shundagina tarjima muvaffaqiyatli amalga oshadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Атаманова А. А. Переводческие трансформации как способ сохранения культурно исторического своеобразия оригинала (на материале перевода романа М.А. Шолохова «Тихий Дон»). Выпускная квалификационная работа. - Санкт-Петербург, 2017.
2. Бархударов Л. Язык и перевод. М.: Международные отношения. 1975.
3. Буранова Б. Бадиий таржимада тарихий-миллий колоритни сақлаш принциплари ("Юлдузли тунлар" романининг туркман тилидаги намунаси асосида): Филол. фан. номз. (PhD) ... дисс. – Т.: 2021.
4. Верещагин Е. М. Язык и культура / Е. М. Верещагин, В. Г. Костомаров. – М.: Русский язык, 2009.
5. Влахов С. И. Непереводимое в переводе / С. И. Влахов, С. П. Флорин. – М.: Международные отношения, 2009.
6. Верещагин Е. Костомаров В. Лингвострановедческая теория слова. М.: Русский язык, 1980.
7. Комиссаров В. Н. Теория перевода / В. Н. Комиссаров. – М.: Прогресс, 2010.

8. Комилов Н. Бу қадимий санъат. – Тошкент: Адабий мерос, 2000.
9. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005.
10. Малафеева Е. Дмитриевна, Хорецкая Н. Ю. Перевод безэквивалентной лексики как объект межкультурной коммуникации (на примере произведений А.П. Чехова). Ивановский государственный университет, Иваново.
11. Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, 2014.
12. Саломов Ф. Таржима назарияси асослари – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
13. Umarova M. XX asr o'zbek nasri namunalari urdu tilidagi tarjimalarda milliy koloritning ifodalanishi: Filol. fan. nomz. (PhD)...diss. – Toshkent, 2022.
14. Ҳамидов Х. Ўзбек қисса ва романларининг туркча таржималарида миллийлик, бадиийлик ва лисоний адекватлик масалалари: Филол. фан. док. (DSc) ... диссертацияси. – Тошкент, 2021.
15. Ходжаева Н. Бадиий таржиманинг лексик-стилистик муаммолари: Филол. фан. номз. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 том. – М.: Рус тили, 1981.
17. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (darslik). – Toshkent, 2019.
18. Швейцер А. Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты / А. Д. Швейцер. – М.: Наука, 2009.

## HINDISTONDA TARJIMASHUNOSLIK RIVOJI

**Gulnoza NAZRULLAYEVA,**  
*TDSHU tayanch doktoranti*

**Abstract.** *Centuries of invasion, migration, and cultural integration have created a great opportunity for South Asian translators, with its remarkable linguistic diversity and state of linguistic contact. It is necessary to preserve the language in the present in order to exercise one's skill and challenge established theoretical linguistic claims. This article is devoted to the development of translation studies in India. It talks about how it developed and its unique features.*

**Key words:** *Indian translation studies, multilingualism, bhakti, navjagaran, svachandatavad, riti.*

“Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o‘zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bugungi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo‘lib qoldi. Ya‘ni quyoshsiz yer yuzida hayot bo‘lmagani kabi, tarjimasiz turli xalqlarning o‘zaro aloqasi, o‘zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo‘lmaydi. “Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo‘lmaslik, g‘o‘fillik milliy mahdudlikka olib keladi” [6; 18]. Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog‘lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o‘zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko‘prik deb qaraladi” [4; 4].

Hindiston Respublikasi – katta ko‘p millatli mamlakatdir. Uning aholisi turli til va shevalarda muloqot qilishadi. 2001-yil aholini ro‘yhatga olishda 1652 til qayd etilgan. O‘n mingdan ortiq ona tilida so‘zlashuvchilar 216 ta til mavjud. Hindistonda rasmiy tillar soni 22 ta hisoblanadi. Ammo bu til boyligi boshidanoq hind jamiyatiga xos xususiyat bo‘lib kelgan. Shuning uchun tarjima Hindistonda turli tillarda so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi muloqot vositasi sifatida uzoq tarixga ega. Tarjimashunoslar nuqtai nazaridan Hindiston turli sabablarga ko‘ra noyobdir.

XVIII-XIX-asr oxirlarida Hindiston g‘arb bilan to‘qnashuv natijasida murakkab, ikki tomonlama, madaniy-intellektual munosabatlar yuzaga keldi. Fan, muhandislik sohalarida va siyosat va iqtisod kabi yangi fanlarda ingliz tili hind tillariga tarjimalar uchun donor tilga aylandi. Falsafa, din, tilshunoslik va adabiyot nazariyasi sohalarida sanskrit tili ingliz va boshqa yevropa tillariga tarjimalar uchun donor tili sifatidagi rolini yangiladi. Aslida, XIX-asrda Yevropa Hindistonni kashf etgani kabi Hindiston Yevropani kash etdi va o‘zaro ta‘sir ehtimoli teng edi. 1820-yilga kelib Yevropaning barcha yirik universitetlarida sanskrit fanlari kafedralari mavjud edi va sanskritshunoslik katta obro‘ga ega bo‘ldi. Asr o‘tgan sari sanskritshunoslik Yevropa ongini shakllantirdi.

"Hindiy tilida tarjima tushunchasining ma'nosi juda keng. Hindiy tilida tarjima so'zi bir qancha so'zlar bilan ifodalanib keladi. Hozirgi eng ommalashgani "अनुवाद" (tarjima) so'zidir. Undan tashqari boshqa so'zlar ham ishlatilib kelinadi. Ular quyidagilar: भाषांतर, परकाया प्रवेश, स्वीकरण, पालतूकरण, रूपांतर, तर्जुमा, छायानुवाद, द्रांसलेट, दुहराव, दुभाषिया, उल्था. Bular quyidagi ma'nolarni o'z ichiga oladi: til uzatish, ruhning bir tanadan boshqasiga o'tishi yoki transformatsiya, o'zgan o'zinikidek qabul qilish, xonakilashtirish. Yuqorida keltirilgan atamalar hindiy tilidagi "अनुवाद" deb tarjima qilinadi. So'zma-so'z va etimologik jihatdan "अनुवाद" "keyingi" nutqni anglatadi. "अनु" – ergashish, "वाद" – nutq deganidir" [1, 101].

Hindiston tarjimashunosligi rivojida quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:

1. Hind lingvistik voqeliklari va erta davr tarjimasi (erta davrdan 1100 yilgacha);
2. Bhakti (भक्ती 1100-1700) va Riti (रीति 1700-1800) davrlari tarjimasi;
3. Navjagaron (नवजागरण) davridagi tarjima;
4. Svachhandatavad (स्वच्छन्दतावाद) davridagi tarjima;
5. Zamonaviy (आधुनिक) davrdagi tarjima (1950-1980);
6. O'ta zamonaviy (आधुनिकोत्तर) davrdagi tarjima (1980dan boshlab);

Shundan kelib chiqqan holda, Hindistondagi tarjimashunoslik taraqqiyotini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. Mustamlakachilikdan oldingi davr tarjimachiligi;
2. Mustamlakachilik davri;
3. Mustamlakachilikdan keying davr;

Birinchi davrni ikkiga bo'lish mumkin: 1) ilk davrlardan 1100 yilgacha va 2) 1100 yildan 1757 yilgacha bo'lgan davr. Hindistonda tarjima amaliyoti haqida gapirilganda, ko'ptilli ekanligi unutilmasligi kerak. Tarjima jarayonida ular nazariyaga va metodologiyaga e'tibor bermasdan tarjima qilganlar. Bir vaqtning o'zida bir necha tillarga ega hindlar bir til tizimidan ikkinchisiga osonlik bilan o'tishi mumkin edi. Hindistondagi turli xil tillar bir biriga raqib bo'lmagan.

XIX-asrning ikkinchi yarimida Hindistonda ko'p tililik rivojlandi. Misol uchun, gujaratlik shoir. Dayaram gujarat va hindiy tillarida ijod qilgan.

Bhakti va riti tarjima davrlarida shoirlar tarjima qilishga intilganlar. Ular hind xalqining yashash tarzini, madaniyatini, an'analarni tarjima orqali targ'ib qilganlar. Aynan Nanak, Kabir, Sur, Tulsi, Narsinh, Mira, Gyaneshvar shoirlar sanskrit tilidagi bilimlarni ommalashtirib, ularni dialektlarga va lokhbashalarga (xalq tili) tarjima qilganlar.

Tarjimachilik faoliyatiga haqiqiy turtki aynan 1757 yildan 1857 yilgacha Sharqiy Hindiston kompaniyasi ostida va 1857 yildan 1947 yilgacha mustamlaka hukmronligi davrida. Shu davrda hindiy tilidan ingliz tiliga tarjimalar ommalashib ketdi. Barcha davlat tadbirlari hindiy tilidan ingliz tiliga tarjima qilinish boshlangan edi.

Hind tarjimashunosi professor G.N.Devy hind kontekstida adabiy tarjimalarni uch turga bo'ladi:

1. Qadimiy adabiy merosni saqlashga qiziquvchilar;
2. "G'arblashuvchi" hind tillari va adabiyoti bilan qiziquvchilar;
3. Zamonaviy hind tillarida "milliylashtirish" adabiyotiga qiziquvchilar;

Hindistonning eng mashhur tarjimonlaridan biri faylasuf, shoir – Shri Aurobindo tarjimashunoslikda psixo-ma'naviy nazariyalarni ishlab chiqdi. U o'zining tarjimalaridan nazariy asos ishlab chiqdi. U ushbu nazariy asoslarini Kalidasa tarjimasida, Bhagavad Gitani tarjimasida, Upanishadlarni tarjima qilishda, nasrning she'rga talqini va bengal tilidagi tarjimalariga oid mulohazalar kabi maqolalarida qayd etgan. Bir qancha asarlarni tarjima qilgandan so'ng, u Hindistonning kognitiv falsafasi va an'analari, xususan, buddizmga bo'lgan va buddistlik davrining ta'siri ostida falsafa va psixologiya bilimi bilan ushbu nazariyalarni ishlab chiqdi [2; 340].

Shri Aurobindoning aytishicha muqaddas bitiklarni tarjima qilishning 3 ta standarti bor. Ular quyidagilar: biluvchi, bilim va muqaddas kitoblarni tarjima qilish ko'nikmasiga ega bo'lish. Shri Aurobindo ikkita asosiy qurilmadan foydalangan holda ko'plab matnlarni tarjima qilgan: tasvirni o'zgartirish va neologizm. U boshqalarga tarjima qilishda xuddi shunday qabul qilishni taklif qiladi. Uning aytishicha, estetik jihatdan muhim matnni tarjima qilishda "so'zning yaqinligi" "ma'no yaqinligi" dan muhimroqdir. Uning fikricha,

### III. TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI SHU'BASI



tarjimon o'zining ijodiy aql-zakovatidan obrazni o'zgartirish orqali foydalanishi, ya'ni asl tasvirning estetik va madaniy qiymati haqida qayg'urishi kerak [2; 340].

Bugungi kunda hind adabiyoti ingliz tiliga tarjimasi va hind-ingliz adabiyoti Hindiston universitetlarida ingliz adabiyoti o'quv dasturlariga kiritilgan. Shu ishlarga katta hissa qo'shgan tarjimonlardan biri Haydorobod universiteti professori Minakshi Mukerji edi. U ingliz tilidan tashqari bengal va Marathi tillariga ham tarjima qilgan. Ammo u Hindistonda ingliz adabiyotining an'anaviy tarzda o'qitilishini tanqid qilardi. U ingliz tili kurslarida hind tilidagi matnlarni tarjima qilish jarayonida madaniyatni yaxshiroq o'rganish mumkinligini aniqladi. Ko'proq matnlarni tarjima qilishni avzaloq ko'rdi. Mukerji tarjimashunoslar uchun meros qoldirdi [7; 157].

Hindiston tarjimashunosligining taraqqiyotiga hissa qo'shgan tarjimonlardan yana biri Dehli universiteti professori Harish Trivedi. U turli xalqaro uyushmalarda ko'plab nufuzli lavozimlarni egallagan. U 1993-1999-yillarda Hindiston hamdo'stlik adabiyoti va tilshunoslik assotsiatsiyasining kotibi va vitse-prezidenti hamda 2002-2004-yillarda shu assotsiatsiyasi raisi o'rinbosari bo'lgan. 2002-yilda AQSHning Chikago universiteti va London universiteti professori bo'lgan. Shuningdek, Afinadagi Jorjiya universiteti, Oklaxoma universiteti va turli nufuzli universitetlarda turli tarjimashunoslikka oid ma'ruzalar o'qidi.

Professor Harish Trivedi tarjima bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirgan, ammo mustamlakachilikdan keying yozuvchi sifatida uning eng muhim ishlaridan biri postcolonial tarjima bo'lib, u Syuzan Bassnett bilan hamkorlikda tahrir qilgan. Shuning uchun tarjima sohasida bir nechta maqolalar nashr etgan. Shuningdek, u "Hindistonda tarjima" deb nomlangan kitob ustida ishlamoqda. Uning asosiy maqsadi – tarjimashunoslarni qiynaydigan nazariy savollarga javob topishdir [3].

Hozirgi zamonaviy hind tarjimonlaridan biri Santosh Aleks. U ikki tilli shoir va ko'p tilli tarjimondir. Tarjima sohasida 23 yildan beri ishlaydi. Santosh mustamlaka davridan keying adabiyotlarni ingliz, hindiy, Malayalam, tamil va telugu tillariga tarjima qiladi. U mamlakatning 100 ga yaqin adiblarini turli tillarga tarjima qilgan. U so'ngi 24 yil davomida tarjima va yozuv san'ati orqali hind adabiyotini boyitib kelmoqda. U she'riyat, tanqid va tarjimaga oid 42 kitob muallifi hisoblanadi. She'rlari 18 tilga tarjima qilingan. Santosh Aleks tarjima borasida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Tarjima – bu san'at. Unda malakaga ega bo'lish uchun ko'p yillik amaliyot kerak. Tarjimani davom ettirish, shuningdek, boshqa tarjima qilingan asarlarni o'qish kerak" [8; 103].

Hindistondagi zamonaviy davrda hind yozuvchilari tarjimashunoslari orasida raqobat kuchaydi. Hind mintaqaviy til yozuvchilari va hind-ingliz yozuvchilari. Ba'zi yozuvchilar o'z asarlarini o'zlari tarjima qiladilar. Masalan, Rabindranat Tagor – bengal tilidan ingliz tiliga, Girish Karnad – Kannada tilidan ingliz tiliga tarjima qilganlar. Hindistonda bir qator ikki tilli yozuvchilar bor. Ular Kamala Das, Jayant Mahapatra va boshqalar. Olimlar shu kunlarda tarjimashunoslik sohasida izlanishlar olib bormoqdalar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. History of Translation in India / Avadhes Kumar Singh. Translation in/and Hindi Literature. National Translation Mission, CILL, Mysuru, 2017.
2. Journal of Emerging Technologies and Innovative Research (JETIR) / Dr.Anisha "Translation in India: Then and Now". Volume 5, Issue 6, 2018.
3. Madhu Shree Dwivedi "Harish Trivedi and his work". Translation and interpreting, New Delhi, India. Modlingua, 2022.
4. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma). – T., 2012.
5. Revista Brasileira de Tradutores/Santosh K.Sareen "Translation in India: history and politics". Anhanguera Educacional S.A. Alamedo Maria Terra, 2000.
6. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: "O'qituvchi", 1978.
7. Sujit Mukherjee "Translation as Recovery". Pencraft International, Delhi-2004.
8. संतोष अलेक्सा अनुवाद प्रक्रिया एवं व्यवहारकिता। Authors press, New Delhi, India, 2016.

## BASIC PROBLEMS OF TRANSLATION ACCOUNTING-AUDITING TERMS

D.B. MADALIEVA,

*teacher of English language department, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University*

**Аннотация.** В статье описан перевод английской терминологической системы бухгалтерского учета и аудита с применением подхода прагматической лингвистики. Учет интересов целевого читателя в данной статье представляется ключевым фактором при выборе подходящего перевода английской полисемантической терминологической системы бухгалтерского учета и аудита.

**Ключевые слова:** бухгалтерский учет-аудит, прагматика, термин, когнитивный аспект, контекст, моносемантическая и полисемантическая лексика, эквивалентность.

**Introduction.** At present time the classification and description of terms in accounting and auditing areas, linguistic analysis of different structural languages, and definition and development of methods, methods, and methodologies of the terminology are some of the most important issues facing world linguists.

It is not a secret that linguistics pays great attention to the translation of economic terms from English into Uzbek because from year to year, it can be observed the development of economic relations between states, legal entities, and individuals, which requires training specialists that meet the requirements of the labor market. Every day more and more people enter into market relations with foreign companies. As a result, an adequate translation of economic vocabulary becomes very important in order to prevent possible misunderstandings between the participants of communication.

Definitely, the accounting-auditing terminological system in English and Uzbek is somewhat complex and typically, requires the interpretation of terminological units in terms of their meaning and interpretation. In fact, this law is an important principle that is applicable to any sphere of the term. In addition, studies focusing on the study of terminology systems of different languages have given a great importance to the analysis of terminology.

In fact, the economy includes various areas of activity: industry, agriculture, trade, stock exchange and communication. Therefore, it is necessary to consider the possibility of the presence in any type of the text the economic orientation of vocabulary from other fields. Each sector of the economy has its own specific units that require the search for the most accurate translation of a specific expression, taking into account the economic, legal, political and cultural realities of a particular country.

**Material and methods.** Undeniably, translation across languages and cultures has a critical role in accounting. This sphere is required in international trade, in operating and accounting for multinational enterprises, in creating, implementing and enforcing international accounting laws and standards, in delivering accounting education to international cohorts of students, and in conducting international and intercultural research. Financial statements and annual reports, standards and standard-setting discourse, teaching materials and publication of research findings all require translation for at least some constituents. Accounting research explores annual report narratives or regulatory discourse, employs content analysis or disclosure indices, conducts interviews, experimental and survey research, and draws on theoretical frameworks, all often across cultural and language boundaries.

That is why, while translating accounting-auditing terminological system, in most cases, from English into Uzbek, linguists try to find an equivalent, which is a very difficult task, since many terms have entered to Uzbek language quite recently and it is not always possible to impose them on the economic realities of Independent Uzbekistan.

The cognitive approach to the studied stratum of foreign words allows us to consider the structure of knowledge in the human mind. Consequently, both the process of translating terms and the process of

borrowing seems appropriate to consider from the standpoint of cognitive linguistics, since they represent two aspects of the same phenomenon of language interaction. In this context, terms are understood as cognotypes, and their multi-valued variants, synonyms and homonyms - as variants of the cognotype [8; 9-12] i.e. units of the metalanguage of a certain sphere of use, denoting a special concept that includes the specific field of knowledge of the speaker [3; 25].

Adequate translation of the accounting-auditing terminological system accelerates the process of information exchange between specialists around the world. When translating a lexical unit, it is necessary to take into account the peculiarities of the economic vocabulary as a whole, namely, accuracy of information, lack of emotional coloring, brevity and systematicity [4]. Thus, the translator must correlate the world of the addressing and receiving sides and possess the cognitive apparatus of economics.

The main problem is that a large number of lexical units belonging to the accounting-auditing terminological sphere have several translation options and in most cases, it does not concern all words, but individual words. This fact makes it possible to subdivide economic vocabulary into single-translation and multi-translational. Translating terms are terms that have one equivalent in the language of translation, and translations, respectively, have several equivalents in translation [10]. For example, the term "account" has several translation options:

- 1) an account; account entry;
- 2) report (financial);
- 3) the period while exchange transactions concluded with the closing of the position on the accounting day;
- 4) a broker's record of transactions executed on behalf of a client;
- 5) reporting;
- 6) accounts;
- 7) business books.

Translating terms in most cases are expressions and phrases that have one translation option, but, speaking separately, they can be multi-valued.

In order to overcome different translation while translating accounting-auditing terms from English into Uzbek, it is necessary to take into account the cognitive models that underlie one or another text [9]. Thus, in highly specialized accounting-auditing texts, facts and reports on the state of stock markets are usually given, and reports on companies' profits and losses analyzed.

Results. Popular accounting-auditing texts most often describe people, who have achieved some success in the economic sphere, or unusual projects or ideas. Accounting-auditing terminological texts include features of the above two types, combining various elements. For example:

Across the country, myriad independent contractors and small service firms have sprung up to supply streamlined corporations with skills ranging graphic design to bill collecting and executive recruiting .

In the above example, the term "corporation" has several translation options: 1) association; 2) corporation; 3) joint stock.

In our opinion, in this case it is better to use the equivalent of "corporation", since the article in question is highly specialized, which means that the readers of this publication have basic knowledge on the topic. Thus, while translating such texts, it is best to use equivalent borrowings in the target language, since it is assumed that the readers of this publication are experts in the field of economics. For popular-economic texts, it is best to use metaphors that will help to make economic terminology accessible to a wide range of readers, who have only the most general idea of the meaning of certain accounting-auditing terms.

It is important to mention encouraging submissions that address topics relating to language, culture and translation in accounting, auditing and accountability. The following topics are possible topics for including:

- Limits of equivalence in accounting translation.
- Problems and opportunities of ambiguity in accounting terminology.
- Translation and power: communication, dissemination, legitimization, lobbying, social change

- Ideological, cultural, social, legal and/or political implications of translation and non-translation in accounting
- Cognitive and cultural bias and vested interests in translation.
- English as a lingua franca: cultural dominance, values, identities and ideologies.
- Transformation of accounting systems and cultures, professions, societal and cultural contexts of change.
- Professional socialization in international contexts.
- International accounting education.
- Accounting history across languages and cultures: translation and language change.
- Implications for standard setting, consultation and the IASB due process.
- Implications for implementation of international accounting rules/standards.
- Probability/uncertainty expressions in accounting standards.
- Translations of rules versus principles.
- Economic implications of accounting translation.
- Accounting research across languages and cultures: research instruments, narratives, experiments, surveys, interviews and oral history, theoretical frameworks in translation (Foucault, Bourdieu, Weber, Habermas etc.).
- Implications for translation of the dissemination of research findings in English language academic journals.

**Conclusion.** Summarizing it can be suggested that while working with accounting-auditing terminological texts, the translator must take into account the peculiarities of the translation inherent in the two types of text described above. It is the basic difficulty of the work, since it is necessary to take into consideration not only the type of text, but also the context, contextual determinants (lexico-syntactic, morphological and lexical-phasal), as well as the economic and political realities of the country to which readers are oriented edition.

#### References:

1. English-Russian financial dictionary-[Electronic resource].-Access mode: <http://www.klerk.ru/slovar/engfin/>
2. English-Russian Dictionary of Economics / Comp. I. F. Zhdanov, E. L. Vartoumian. – M., 1989.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов / О.С. Ахманова. – 2-е изд., стер. – М : УРСС : Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.
4. Борисова Л.И. Особенности перевода общенаучной лексики с русского языка на английский. – М.: НВИ: Тезаурус, 2007.
5. Magazine "Fortune" [Electronic resource].- Access Mode: <http://fortunemagazineng.com>
6. Journal "Business Week"-[Electronic resource].-Access Mode: <http://www.businessweek.com/>
7. Кинчина Е. В. Когнитивные аспекты перевода экономических терминов: На материале английского и русского языков. Дисс. на соиск. степени кандидата филологических наук. – М., 1999.
8. Ковтун Л.Г. Образцова Н.А. Куприкова Т.С. и др. Английский язык для банкиров и брокеров, менеджеров и специалистов по маркетингу. – М.: НИП 2 Р, 1994.
9. Стрелецкая И. В., Новаковская Е. В. Некоторые особенности перевода экономических текстов с английского языка на русский // Мир современной науки, 2011. – №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-osobennosti-perevoda-ekonomicheskikh-tekstov-s-angliyskogo-yazyka-na-russkiy> (дата обращения: 20.03.2024).
10. Bassnett S., Trivedi H. Postcolonial Translation: Theory and Practice. – Rout ledge, 2012.
11. Catford J. C. Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. – Oxford University Press, London, 1965.

# THEORETICAL BASES OF STUDYING THE TERM FIELD "VITICULTURE AND WINEMAKING" IN MODERN SCIENCE

**Khusan AXMEDOV,**  
*Teacher of French at the International  
School of Finance Technology and Science*

**Annotatsiya.** *Maqolamizda terminologik tarjima muammolarining kichik qismini taqdim etishga harakat qildik. Fransuz va o'zbek tillarida uzumchilik va vinochilik atamalarining tarkibiy-semantik xususiyatlari, ularning farq va o'xshash tomonlari, rus va ingliz tillarida ilmiy-amaliy ahamiyatini o'rganish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tadqiqotlar yo'qligi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.*

**Kalit so'zlar:** *leksikografik manbalar, tizimli tavsif, maxsus lug'at tarjimasining xususiyatlari, kognitiv lingvistika.*

In the modern world, the main attention of researchers in the field of cognitive linguistics and cultural studies is focused on the study of sections of the national picture of the world. This is confirmed by the studies devoted to the issues of studying the national originality of the linguistic picture of the world and its fragments at the present stage [1]. In the framework of the ongoing research based on French and Russian languages, an attempt is made to substantiate the need for a synthesized approach to the study of the holistic essence of the world picture. In particular, the study considers the term field "Viticulture and winemaking", represented by French and Russian languages as a segment of the world picture, revealing interrelations within the scientific and technical picture of the world and outside it – with the national picture of the world.

Despite a significant number of works in Russian and foreign linguistics devoted to the study of individual thematic groups, the term field "Viticulture and winemaking" has not been the subject of research so far and is insufficiently described in the available lexicographic sources. All this points to the weak study of the term field "Viticulture and winemaking" and the need for its systematic description from the standpoint of the new knowledge paradigm of cognitive linguistics.

The present study is carried out in line with modern trends in cognitive linguistics and terminology, focused on the description of lexico-semantic and word-formation aspects of the formation of special vocabulary.

The communicative aspect and peculiarities of translation of special vocabulary were taken into account in the study of the term field. It is relevant to study the cognitive essence of the process of borrowing foreign-language and inter-branch terms.

The present article research presents the results of a comparative, structural-semantic and functional description of lexical units of English and Russian languages, forming the term field "Viticulture and winemaking". The investigated term field includes names of different types of wines, various forms of the production process; vocabulary related to the practice and theory of winemaking, related aspects of viticulture and winemaking (vine diseases, objects contributing to the consumption of wines; inventors and names of drinks, viticulture and winemaking regions, as well as the history of the industry, etc.).

The term "viticulture and winemaking" is of scientific interest from the point of view of its systemic structure, history of formation and evolution, stability and variability in dynamics, linguocultural component.

Viticulture and winemaking is a branch of agriculture related to the cultivation of grapes and wine production. This term has both lexico-semantic and word-formation aspects in both English and Russian.

The lexico-semantic aspect includes the meanings of the term "viticulture and winemaking" itself and related concepts. In English, the term is translated as "viticulture and winemaking". "Viticulture" means the cultivation of grapes, and "winemaking" means the process of wine production. In Russian, the term "viticulture" refers to the cultivation of grapes, and "winemaking" refers to the process of making wine.

The word-formation aspect includes the process of forming new words and word combinations based on a given term. For example, in English one can find such words as "viticulturist" (grape grower) or



"oenologist" (winemaker). In Russian, one can form the words "виноградник" (place for growing grapes) or "винодельня" (wine production plant).

Thus, the term "viticulture and winemaking" contains both lexico-semantic and word-formation aspects reflecting the specificity of this branch of agriculture in English, French and Russian.

Viticulture and winemaking - these terms in both languages have similar lexico-semantic meanings and are related to the process of wine production. In French, the word "viticulture" is translated as "viticulture" and "winemaking" as "viniculture" or "enology". In Russian, the terms "viticulture" and "winemaking" are used respectively.

The vocabulary aspect of these terms is also interesting. For example, in French the term "enology" is derived from the Greek word "oinos" (wine), while "viniculture" is formed from the Latin word "vinum" (wine). In Russian, the word "viniculture" consists of the root "grape" and the suffix "-arstvo", denoting a type of activity or production.

Thus, the terms "viticulture" and "winemaking" in French and Russian have similar lexical-semantic meanings and are formed based on roots related to wine production. Translation of wine industry terminology can be problematic due to the specificity and complexity of terms related to wine production. Some of them have highly specialized meanings that may be incomprehensible to the average translator.

Additionally, several terms may be unique to a particular region or country, which also complicates the translation process. For example, the specific name of a grape variety or method of wine production may be difficult to translate accurately into another language. To solve this problem, it is advisable to consult wine experts and translators with experience in wine industry terms. It is also useful to use specialized dictionaries and glossaries to facilitate the translation process.

The results of the conducted research have shown that the majority of terminological units of "Viticulture and winemaking" are simple (homogeneous) words. In this regard, micro-nests and macro-nests were identified in English and Russian languages, as well as types of terminal chains were revealed, which is evidence of the high derivational potential of the terminological domain "Viticulture and Wine Industry".

Words constructed with prefixes.

agriculture-mots latins et sens (composants);

viticulture-prefixe

viniculture-prefixe

verjus-prefixe

vinifera-prefixe

porte-greffe- mots construits

vin blanc- mots construits

vin rouge- mots construits

boeuf bourguignon- mots construits

bouillie bordelaise-mots construits

terroir viticole- mots construits

grain blanc- mots construits

vin de table- mots construits

### References:

1. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. – М., 1999.
2. Jacques Cauvin. Naissance des divinités, naissance de l'agriculture : la révolution des symboles au Néolithique, Paris, CNRS, 1997, (ISBN 978-2-271-05454-8).
3. Marcel Mazoyer et Laurence Roudart. Histoire des agricultures du monde. Du Néolithique à la crise contemporaine, Points histoire, 2002, (ISBN 978-2-02-053061-3).
4. Saltini A. Storia delle scienze agrarie. 4 Vol., Bologne, 1984-89. (ISBN 978-88-206-2412-5, 978-88-206-2413-2, 978-88-206-2414-9 et 978-88-206-2415-6)
